

O'ZBEKISTONDA MUALLIFLIK HAQI MIQDORINI ANIQLASH VA TO'LAB BERISH MUAMMOLARI

Avlaqulov Sobir Shodiqul o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universiteti, "Intellektual mulk va axborot
texnologiyalari huquqi" yo'nalishi magistranti*

Hozirgi vaqtida internet va axborat texnologiyalarining rivojlanishi yuqori cho'qqiga chiqqan mualliflik haqi miqdorini aniqlash va to'lashga bir qancha muammoli hamda nizoli holatlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Mualliflik haqi miqdorini aniqlash va to'lab berishda bir qator muhim jihatlari mavjud bo'lib, ular e'tiborga olinishi kerak. Bularga quyidagilar kiradi:

Raqamlı iqtisodiyot: Raqamlı iqtisodiyotning rivojlanishi mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlardan foydalanishning yangi usullariga olib keldi. Misol uchun, asarlar endi tez-tez onlayn, mobil ilovalar va boshqa raqamlı formatlarda qo'llaniladi. Bu, o'z navbatida, mualliflik haqlarini aniqlash va to'lashda yangi muammolarni keltirib chiqardi. Asosiy muammolardan biri shundaki, raqamlı iqtisodiyotda asarlarni osongina va tez nusxalash va tarqatish mumkin. Bu mualliflik huquqi egalariga o'z asarlaridan foydalanishni kuzatish va ulardan foydalanish uchun haq olishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Yangi texnologiyalar: Sun'iy intellekt kabi yangi texnologiyalarning rivojlanishi mualliflik haqlarini aniqlash va to'lashda yangi muammolarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, sun'iy intellekt yangi mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Bu mualliflik huquqi egalariga ushbu asarlarning muallifi kimligini aniqlashni qiyinlashtirishi mumkin. Yana bir muammo shundaki, sun'iy intellekt mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlarni avtomatik ravishda nusxalash va tarqatish uchun ishlatilishi mumkin. Bu mualliflik huquqi egalariga o'z asarlaridan foydalanishni kuzatish va ulardan foydalanish uchun haq olishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham mualliflik huquqida mualliflik haqi miqdorini aniqlash hamda to'lash muarakkab jarayon hisoblanadi. Shu sababli, birinchi navbatda mualliflik haqi miqdorini aniqlash tartibiga to'xtalsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mualliflik haqi miqdori mualliflik haqi stavkalariga qarab aniqlanadi. Ammo, bu jaryon ancha murakkab va amalda ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimiz "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunining 39-moddasiga muvofiq, qoida tariqasida, mualliflik haqi mualliflik shartnomasiga ko'ra, olingan daromaddan foiz tarzida yoki aniqlashning imkonи bo'lmasa, shartnomada ko'rsatilgan summa tarzida belgilanadi.

Bu Qonunning ushbu qoidasini aniqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-avgustdagи "Madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborat vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3201-sonli Qarori va ushbu qaror bilan tasiqlangan ilova hujjatlari¹ bilan mualliflik haqining kam stavkalari belgilangan. Ushbu qarorga muvofiq, mualliflik haqi va unga doir boshqa to'lov turlarini ushbu qarorning 1 — 6-ilovalarida belgilangan darajadan kam miqdorda to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

Bu qarorning 1-ilovasiga² muvofiq, original asarlarni nashr etish asar muallifiga bitta kitobning boshlang'ich narxi (qiymati)dan foiz stavkalari tarzida to'lanadigan eng kam stavka 10 foizni tashkil etsa, tarjima asarlarni nashr etish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3201-sonli Qaroriga ilovalar: 1-ilova "Fan, adabiyot va san'at asarlari nashr etilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari", 2-ilova "Ommaviy ijro uchun dramatik, musiqali va musiqali-dramatik, adabiy asarlari yaratish bo'yicha buyurtmalarni bajargani uchun, haykaltaroshlik asarlari, tasviriy san'at asarlari yaratgani, badiiy loyihalashtirish va konstruksiyalash ishlari uchun mualliflik haqi hamda dramatik, musiqali va musiqali-dramatik asarlarni sahnalashtirganlik uchun haq to'lashning eng kam stavkalari, shuningdek, ushbu pul O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan to'langanida uning eng yuqori stavkalari", 3-ilova "O'zbekiston Milliy axborot agentligi kanallari orqali, televideniye va radioda beriladigan materiallar uchun haq to'lashning eng kam stavkalari", 4-ilova "Kinofilmlar uchun adabiy ssenariylar, original musiqa va qo'shiqlar matnlarini yaratganlik uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari" 5-ilova "Kinofilmlar uchun maslahatlar berish bo'yicha mutaxassislar mehnatiga haq to'lashning eng kam stavkalari" 6-ilova "Kinofilmlar postanovkasi uchun ularning badiiy darajasiga ko'ra suratga olish guruhlarining ijodiy xodimlariga postanovka qilganlik haqining eng kam stavkalari"

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3201-sonli qaroriga ilovalar: 1-ilova "Fan, adabiyot va san'at asarlari nashr etilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari".

bitta kitobning boshlang'ich narxi (qiymati)dan foiz stavkalari tarzida to'lanadigan eng kam Stavka original asar muallifiga 6 foiz tarjimonga 4 foizda to'lanishi belgilangan.

Bundan tashqari, haykaltaroshlik asarlari, tasviriy san'at asarlari yaratganlik, badiiy loyihalashtirish va konstruksiyalash uchun mualliflik haqi stavkalari (2-ilova) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori nisbatan koeffitsiyent bo'yicha bir asar uchun mualliflik haqi to'lanishi belgilangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-yanvardagi 10-sonli qarori, shuningdek, qaror asosida uning uchta ilova hujjatlari³ ishlab chiqilgan. Ushbu hujjatlarda asarlardan foydalanish uchun minimal haq stavkalari belgilangan.

Qarorning 2-bandida aytishicha, ma'lum stavkalar, agar foydalanuvchi va huquq egasi (uning manfaatlarini ifodalovchi jamoaviy boshqaruv tashkiloti) o'rtasidagi shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa va mualliflik haqi miqdori manfaatdor tomonlar o'rtasida nizo bo'lmasa, qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston qonunchiligi bu holatda asarlardan foydalanish uchun haq miqdorlarini belgilash bilan bog'liq masalalarni davlat tomonidan tartibga solishning odatiy ko'rinishini taqdim etadi⁴.

Bundan tashqari, ushbu Qarorning 1-ilovasi "Asarlar ommaviy ijro etilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to'g'risida" NIZOMda e'lon qilingan asarlar efirga uzatilganligi uchun (radio, televide niye) 1 (daromadning umumiyligi summasidan) foiz miqdorda mualliflik haqi to'lash belgilangan. Vaholangki, radio yoki televide niye efirga uzatilgan asardan daromad qilmaydi. Balki, ularning daromad topishiga xizmat qiladigan boshqa kontentlari

³ Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-yanvardagi 10-sonli "Adabiyot va san'at asarlardan foydalanganlikning ayrim turlari uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to'g'risida"gi qaroriga ilovalar, "Asarlar ommaviy ijro etilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to'g'risida"gi Nizom, "Asarlar fonogrammada takrorlanganligi, fonogrammalar va audiovizual asarlar nusxalari prokatga berilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to'g'risida"gi Nizom, hamda "Tasviriy san'at asarlari takrorlanganligi va dekorativ-amaliy san'at asarlari nusxalari sanoatda ko'paytirilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to'g'risida" Nizom.

⁴ Yakubova Iroda. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarishni takmillashtirish. Yuridik fan doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. 2023 y. 198-bet

bo'ladi va u bir asarni efirga uzatganli uchun umumiy daromadidan 1 foizi miqdorida haq to'lashi ham e'tibor qaratish jarayon hisoblanadi. Negaki, bu kabi mualliflarga berilgan imkoniyat dastlabki davrda mualliflarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida qo'llanilgan. O'ylaymanki, bu hozirgi davr uchun ma'nан ekskirgan usul hisoblanadi.

Hozirgi kunda muallif haqini aniqlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruchi tashkilotlarning o'rni muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuninin 58-moddasida birinchi qismi talabida tashkilot haq miqdorini o'zaro kelishib olishi kerakligi belgilangan. Haq miqdori esa foydalanuvchilar bilan muzokaralar paytida yuzaga keladigan eng qiyin masalalardan biridir.

Dunyoning boshqa mamlakatlaridagi mualliflik huquqini jamoaviy boshqaruv tashkilotlari, odatda, tomonlarning kelishuvi asosida mualliflik haqi stavkalarini belgilaydilar. Bu amaliyotning afzalligi shundaki, muzokaralarda har bir tomonning manfaatlari hisobga olinadi. Agar tomonlar o'zaro maqbul yechim topmasalar, nizo sudga yuboriladi yoki mamlakatda ishlab chiqilgan (masalan, Buyuk Britaniya) boshqa maxsus vositachilik tizimi kuchga kiradi⁵.

Ba'zi mamlakatlarda jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining tariflari rasmiy ravishda e'lon qilinadi yoki maxsus davlat organi tomonidan tasdiqlanadi. Masalan, Germaniya "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni boshqarish to'g'risida"gi qonunining 13-paragrafi 3-bandida shunday deyilgan: "Jamoaviy boshqaruv jamiyatlari o'zları boshqaradigan huquq va da'volar uchun talab qilinadigan to'lov larga nisbatan tariflarni belgilaydilar. Jamiyatlar jamoa boshqaruvi tariflarini va ularga kiritilgan har qanday o'zgartirishni kechiktirmasdan e'lon qilishi shart"⁶.

O'zbekistonda dunyoning aksariyat mamlakatlarida bo'lgani kabi mualliflik haq miqdori, qoida tariqasida, asardan foydalanish uchun daromadning foizi

⁵ The Copyright Board is the successor to the Copyright Appeal Board 163 (see R.S.C. 1985, c. C-42, ss. 66–68 and R.S.C. 1970, c. C-30, s. 50). (1993), 6 Cahiers de propriété et intellectuelle 407.

⁶ Act Germany on copyright and related rights (copyright act, as amended up to act of september 1, 2017) <https://wipolex.wipo.int/en/text/474282>.

sifatida belgilanadi. Ulardan qanday foydalanishga qarab, mualliflik huquqini jamoaviy boshqaruv tashkilotlarida mualliflik haqi stavkalari ham qat'iy yoki aralash bo'lishi mumkin. Mualliflik haqining aralash tabiatini asardan foydalanganlik uchun daromad foizlarini to'lashni o'z ichiga oladi, ammo, shu bilan birga, foizlar tizimidan foydalanish pastroq ko'rsatkichlarga olib keladigan bo'lsa, eng kam haq miqdori to'lanishi nazarda tutiladi.

Tariflarni belgilash tartibi (daromad ulushi, qat'iy miqdor, aralash to'lov shakli), shuningdek, ularning hajmi nafaqat ish va asarlardan foydalanish xususiyatlari, balki mavjud mamlakatning ishlab chiqarishdagi iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga ham bog'liq.

Binobarin, mavjud farqlarga qaramay, jamoaviy boshqaruv tashkilotlarida mualliflik haqi stavkalarini bir-biri bilan qiyoslash mumkin. Misol tariqasida olsak, musiqiy asarlar ommaviy ijro etilgan taqdirda, stavka konsert chiptalarini sotishdan tushgan tushumning 10 dan 12 foizigacha, boshqa hollarda 6 dan 12 foizgacha o'zgaradi. Ijro etilgan dramatik, musiqiy-dramatik va xoreografik asarlar uchun mukofot miqdori 10 foizdan 15 foizgacha belgilanishi mumkin. Jamoaviy boshqaruv tashkilotlari o'z faoliyatida daromad yoki uni belgilashning aralash xususiyatiga qarab ish haqini belgilash prinsipidan foydalangan holda, o'zlarining tariflaridan qat'iy belgilangan mualliflik haqi stavkalarini chiqarib tashlashga harakat qilishadi⁷.

Shuningdek, qanday hollarda mualliflik haqi stavkasini aniqlashning qat'iy va aralash versiyalari qo'llaniladi, degan savolga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Fransiya, Ispaniya va boshqa bir qator mamlakatlarning mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunlarida mualliflik haq miqdorini daromadning foizi sifatida aniqlash qoidasi majburiydir⁸.

Ushbu norma O'zbekiston qonunchiligidagi xuddi shunday shakllantirilgan.

⁷ Yakubova Iroda. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarishni takmillashtirish. Yuridik fan doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. 2023 y. 201-bet

⁸ Liu, JP 2000-2001. "Besitz digitaler Kopien: Urheberrechtsgesetz und Vorfälle des Eigentums an Kopien". William & Mary Law Review, vol. 41, S. 1320.

Yuqoridagi Qarorning ilova hujjatiga⁹ muvofiq foydalanuvchining daromadini aniqlash qiyin bo'lgan hollarda mualliflik haqi miqdori mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan foydalanuvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida qayd etilgan summada yoki bazaviy hisoblash miqdorida belgilanishi mumkin.

Bundan tashqari, u yoki bu tashkilotning umumiy daromadi aniq summasini aniqlash mumkin bo'limgan hollarda to'lovchidan undiriladigan mualliflik haqi stavkalari mualliflik huquqlarini jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan kelishilgan holda qayd qilinadigan summalarda belgilanishi mumkin.

Mamlakatimiz mualliflik qonunidan farqli o'laroq, boshqa mamlakatlarning mualliflik huquqi qonunchiligi belgilangan miqdorda haq to'lab foydalanishga imkon beruvchi ma'lum istisno bilan foydalanish ro'yxati bilan to'ldiriladi. Masalan, Fransiyaning Intellektual mulk kodeksida (131-4-modda) quyidagilar nazarda tutilgan: "Muallifning o'z asariga bo'lgan huquqlarni o'tkazishi to'liq yoki qisman bo'lishi mumkin. O'tkazish muallifning asarni sotish yoki undan foydalanishdan olingan daromadga mutanosib ishtirokini o'z ichiga oladi¹⁰.

Germaniya "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni boshqarish to'g'risida"gi qonunining 13-paragrafi 3-bandiga ko'ra: "Tariflarni hisoblash uchun, odatda, foydalanishdan olingan pul tushumlari asos bo'ladi. Tariflar boshqa asoslar bo'yicha ham hisoblanishi mumkin. Natijada foydalanish uchun daromadning tegishli mezonlari mavjud bo'lib, ular oqilona iqtisodiy xarajatlarga nisbatan baholanishi mumkin. Tariflarni belgilashda ijod namunasidan foydalanishning to'liq foydalanishga nisbati hisobga olinishi kerak. Tariflarni belgilash va ish haqini yig'ishda jamoaviy boshqaruv jamiyatlari ish haqi to'lashi kerak bo'lgan shaxslarning diniy, madaniy va ijtimoiy manfaatlari, shu jumladan, yoshlar uchun xayriya masalalarini ham hisobga olishlari kerak"¹¹.

⁹ Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-yanvardagi 10сонли qaroriga 1-ilova: "Adabiyot va san'at asarlaridan foydalanganlikning ayrim turlari uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to'g'risida"gi qaroriga ilovalar, "Asarlar ommaviy ijro etilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to'g'risida"gi Nizom

¹⁰ Intellectual property code of France (consolidated version as of november 15, 2019) <https://wipolex.wipo.int/en/legislation/details/19324>.

¹¹ Act Germany on copyright and related rights (copyright act, as amended up to act of september 1, 2017)

Mualliflik jamiyatlari tomonidan yig'ilgan mukofot puli individual huquq egalari o'rtasida ularning asarlaridan haqiqiy foydalanishga muvofiq ravishda taqsimlanadi. Individual taqsimot, agar yig'ilgan ish haqi miqdori kam, uni oqilona narxda taqsimlashning imkonи bo'limgan taqdirda, amalga oshirilmasligi mumkin.

Mualliflik jamiyati o'z o'rnida foydalanilayotgan ijod namunalari uchun haqning to'g'ri taqsimlangani va foydalanuvchi amalga oshiradigan summa haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bu haq miqdorini hisoblashdagi asosiy mezon hisoblanadi¹².

Mamlakatimizda mualliflik to'lovlarini taqsimlash ustidan nazorat huquq egalarining o'zлari tomonidan qonun asosida amalga oshiriladi. Bu holatda alohida davlat nazorati mavjud emas. Fikrimizcha, bu holat milliy mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish tizimining muhim kamchiligidir. Mualliflik to'lovlarini taqsimlash sohasidagi davlat nazorati tashkilot faoliyatining yo'nalishlaridan biri sifatida, shuningdek, tashkilotning mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish bo'yicha faoliyati natijalarining davlat va jamiyat uchun alohida ijtimoiy ahamiyati tufayli zarurdir. Bunday nazoratning mavjudligi huquqlarni jamoaviy boshqarish tashkilotlari tomonidan bu masalada xatolar va suiiste'molliklarning oldini olishga yordam beradi¹³.

Shuni ta'kidlash kerakki, mualliflik huquqi to'lovlarini aniqlash hamda taqsimlash jarayoni mualliflik huquqini jamoaviy boshqarishni tashkil etishning eng qimmat va ko'p vaqt talab qiladigan bosqichidir. Mamlakatimizda bunday tashkilotlarni tashkil etish va ulardan foydalanish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ishning ushbu bosqichida aksariyat "yosh" mualliflik jamiyatlari boshqaruv faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lib qoladi. Mualliflik huquqi egalari uchun haq undirish oson emas, lekin ularni tarqatish va ularga haqli bo'lganlarga to'lash ancha qiyin va qimmatroq jarayon hisoblanadi.

¹² Yakubova Iroda. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarishni takmillashtirish. Yuridik fan doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. 2023 y. 210-bet.

¹³ Yakubova Iroda. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarishni takmillashtirish. Yuridik fan doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. 2023 y. 215-bet.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mualliflik haqini aniqlash bo'yicha o'zgarish bo'lishi kutilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi kengaytirilgan yig'ilishi davomida berilgan topshiriqlar bo'yicha 50-sonli Bayonning 37-bandida Adliya vazirligiga va Ma'daniyat vazirligiga: mualliflarga va ijrochilarga to'lanadigan mualliflik haqining eng kam stavkalarini tanqidiy ko'rib chiqsin va mualliflik haqini to'lash tartiblariga aniqlik kiritish vazifasi yuklatildi. O'ylaymanki, kelajakda mualliflik haqini aniqlash va uni to'lash bilan bog'liq jarayonlar ancha soddalashtiriladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib shuni aytishimiz mumkinki, mualliflik haqi miqdorini aniqlash va to'lab berish masalalari O'zbekiston Respublikasida hanuzgacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, internet va sun'iy intellekt texnologiyalarining ommalashuvi natijasida mualliflik huquqlarining amalda qo'llanishi va mualliflik haqi miqdorining hisob-kitobi yanada murakkablashdi. Ayniqsa, asarlardan foydalanishning ko'plab shakllari mavjud bo'lgan sharoitda ularni baholash va mualliflarga adolatli haq to'lash mexanizmlarining mavjud emasligi muammoni yanada chuqurlashtirmoqda.

Shuni aytib o'tish kerakki, mualliflik haqi miqdorini aniqlash va to'lash – faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy, madaniy va huquqiy jihatlarni o'z ichiga oluvchi kompleks masala bo'lib, uning yechimi uchun davlat, jamiyat, ijodkorlar va foydalanuvchilar o'rtasida faol hamkorlik zarur. Kelajakda mualliflik haqi tizimini yanada takomillashtirish uchun qonunchilikni kuchaytirish, raqamli platformalarni joriy qilish va mualliflar bilan foydalanuvchilar o'rtasida shaffof munosabatlarni yo'lga qo'yish muhimdir.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni;

2.Yakubova Iroda. Mualliflik huquqida mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarishni takmillashtirish. Yuridik fan doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan Dissertatsiya. 2023 y. 210-bet.

3. Intellectual property code of France (consolidated version as of november 15, 2019) <https://wipolex.wipo.int/en/legislation/details/19324>.

4. Act Germany on copyright and related rights (copyright act, as amended up to act of september 1, 2017)

5. Liu, JP 2000-2001. “Besitz digitaler Kopien: Urheberrechtsgesetz und Vorfälle des Eigentums an Kopien”. William & Mary Law Review, vol. 41, S. 1320.

6. Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-yanvardagi 10-sonli qaroriga 1-ilova: “Adabiyot va san’at asarlaridan foydalanganlikning ayrim turlari uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi qaroriga ilovalar, “Asarlar ommaviy ijro etilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to‘g‘risida”gi Nizom

7. The Copyright Board is the successor to the Copyright Appeal Board 163 (see R.S.C. 1985, c. C-42, ss. 66–68 and R.S.C. 1970, c. C-30, s. 50). (1993), 6 Cahiers de propriet’ e intellectuelle 407.

8. Act Germany on copyright and related rights (copyright act, as amended up to act of september 1, 2017) <https://wipolex.wipo.int/en/text/474282>.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 3201-sonli